

# **Surxon vohasi polvonি Muhsin Hisomiddinov uch karra Osiyo o'yinlari g'olibи bo'ldi**



Ayni kunlarda Xitoyning Hangjou shahrida bo'lib o'tayotgan Osiyo o'yinlarida bugundan Kurash bahslari start oldi. Kurash vatani bo'lган O'zbekiston kurashchilari haqiqiy polvonlar yurtidan ekanliklarini namoyish etishib, birinchi kun bahslarining o'zida 3 ta oltin, 1 ta kumush medalni o'z hisoblariga yozib qo'yishdi.

Jumladan, erkaklar o'rtasida +90 kg vazn toifasi final bahsida yurtimiz sharafini surxondaryolik kurash bo'yicha Osiyo o'yinlari g'olibи, qit'a va jahon championi Muhsin Hisomiddinov munosib himoya qilib Osiyo o'yinlarida uchinchi bor championlikni qo'lga kiritdi.

Polvonimiz finalda turkmanistonlik Tejen Tejenovdan ustun kelib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Bu delegatsiyamiz uchun mazkur Osiyo o'yinlaridagi o'ninchi oltin medal.

Sportchimiz va uning yaqinlarini hamda barcha yurtdoshlarimizni ushbu zafarli g'alabalar bilan muborakbod etamiz.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)